

---

## TANISHTIRUV



Turdiyev Zuxriddin Raxmataliyevich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Qo'shtepa tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori lavozimiga tayinlandi.

Zuxriddin Turdiyev 1989 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 2011 yilda Farg'ona politexnika institutini tamomlagan.

Zuxriddin Turdiyev mehnat faoliyatini 2012 yili "Avtogaz servis" xususiy korxonasida boshlab, gaz operatori bo'lib ishlagan. Shuningdek, faoliyati davomida ushbu korxonada hisobchi, "Vodiy avto gazta mir" MChJda bosh hisobchi hamda 2014 yildan boshlab Qo'shtepa tumani Davlat soliq inspeksiyasida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan. 2017-2018 yillarda viloyat Davlat soliq boshqarmasida ishlagan.

Tayinlovga qadar Langar mahalla fuqarolar yig'inidagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimida faoliyat olib borgan.

Oilali, turmush o'rtog'i - Qo'shtepa tumanidagi 42-umumta'lim maktabida ishlaydi, uch nafar farzandi bor.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook,](#)

2023-09-06 13:52:34